

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Э.Б.Ягьяева	
Дифференцированный метода обучения при изучении иностранного языка и организации самостоятельной работы студентов.....	114
М.К.Мавлюда	
O'qituvchi kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	117
G.A.Asomiddinova	
Qahramon karakterini yaratishda badiiy nutq imkoniyatlari va muallif mahorati.....	120
N.K.Abbasova, Z.Q.Xakimova	
Speech act as an important function of communication.....	125
Sh.R.Muydinov	
Linguoculturological description of zoonym composite partial similarities.....	128
M.Madaminova	
Exploring the persuasive power of publicistic style: utilizing proverbs and sayings in english lesson.....	130
Sh.M.Yusufjonova	
Frazeologizmlar taqiqi.....	134
Ш.И.Аскарова	
К проблеме языковой интерференции и билингвизма при изучении третичного языка.....	137
Ш.И.Аскарова	
К вопросу трансфера и интерференции при изучении немецкого после английского языка.....	141
Sh.Sh.Dadabayeva	
Tarjimada so'zning kontekstdagi ma'nosini aniqlash usullari.....	148
Sh.Sh.Dadabayeva	
Tarjima jarayonida vaziyatning o'rganilishi.....	152
Sh.Y.Usmonova	
Cognitive analysis of landscape terms in uzbek and english languages.....	159
Sh.Y.Usmonova	
O'zbek va ingliz tillarining terminologik tizimida landshaft terminlarining o'rni.....	162
Z.Sh.Pazilova	
Nemis xalqida dafn marosimining o'tkazilishi.....	167
Z.Sh.Pazilova	
O'zbek va nemis xalqlarida to'y bilan bog'liq shaxs nomlari.....	170
R.U.Axrорова	
Lingvomadaniyatshunoslik: lingvokulturema va logoeistema.....	173
O.O.Bobokalonov, R.U.Akhrорова	
Shifonemas in phraseological units related to the period of youth.....	178
R.U.Axrорова	
Fransuz ertaklarida yoshga oid representlarning leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlari.....	182
Z.M.Abdullaev	
Nemis tili ismlari motivlari va ism tanlashga ta'sir etuvchi omillar.....	185
Z.M.Abdullaev	
Nemis tilida atoqli otlar va ularning tasnif etilishi.....	188
I.R.O'rinboyev	
Ba'zi na'matak (<i>Rosa</i>) turlarining Farg'ona shahrida tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari.....	190
I.D.Yakubov	
Separator-tozalagich qurilmasining parametrlari.....	193
M.Nazarov, A.T.Maxsudaxon	
Javdarni jadal texnologiyada parvarishlash.....	201
Ё.Г.Абдуганиев	
Получение и свойства производных перфторакриловой и перфторметакриловой кислоты.....	205
D.M.Ahmedova	
Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	215

FRANSUZ ERTAKLARIDA YOSHGA OID REPREZENTLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ И НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ВОЗРАСТА ВО ФРАНЦУЗСКИХ СКАЗКАХ

LEXICAL-SEMANTIC AND NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF AGE REPRESENTATIVES IN FRENCH FAIRY TALES

Axrorova Ruzixon Usmanovna¹

¹Farg'ona davlat universiteti., f.f.f.d., (PhD), dotsent.

Аннотация

Ertak, xalqning madaniyatidan darak beruvchi voqea-hodisalar hamda leksik birliklarni o'zida yashirgan pretsedent (o'zidan keyingi sodir bo'ladigan xuddi shu turdagi voqealarga o'rnak, misol bo'larli hodisa) matnning bir shakli hisobalanadi. Fransuzlarning eng mashhur afsonalaridan birida ta'kidlanishicha, u tog'lar ustidagi bir qasrda istiqomat qiladi va xazinani qo'riqlaydi. Madaniyat belgisi bilan tamg'alangan ertaklar mazmunining uncha ko'p bo'lmagan foizi fransuz ratsionalizmidan guvohlik beradi: fransuzlar u yoki bu perdet va hodisalarni tushuntirishda ko'proq his-tuyg'u va irimlarga (e'tiqodlarga) emas, balki ong va tafakkurga tayanadi. Xalqning xarakteri va uni tashkil etuvchi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash juda mushkul vazifa bo'lib, fransuz millati shaxsiga xos xususiyatlar boshqa ko'p millatlarga ham xosdir. Shunga qaramay, ajratilgan madaniy dominantlar fransuz ertaklarida «fransuz milliy xarakteri»ni eng yuqori darajada ifodalovchi hamda aynan fransuz kishisining milliy o'ziga xosliklarini farqlovchi lisoniy vositalardir.

Аннотация

Сказка – это форма текста, скрывающая события и лексические единицы, указывающие на культуру народа и прецедент (пример однотипных событий, которые произойдут после него). По одной из самых известных легенд французов, он живет в замке на вершине горы и охраняет сокровища. Небольшой процент содержания сказок, отмеченных знаком культуры, свидетельствует о французском рационализме: французы при объяснении того или иного явления и явления больше опираются на сознание и мышление, чем на чувства и убеждения (убеждения). Определить характер народа и специфические черты, составляющие его, — очень трудная задача, причем особенности личности французской нации характерны и для многих других наций. Тем не менее, изолированные культурные доминанты представляют собой языковые средства, выражающие «французский национальный характер» на высшем уровне и выделяющие национальные особенности французского человека.

Abstract

A fairy tale is a form of text that hides events and lexical units that indicate the culture of the people and a precedent (an example of the same type of events that will happen after it). According to one of the most famous legends of the French, he lives in a castle on top of the mountains and guards the treasure. A small percentage of the content of fairy tales marked with the sign of culture testifies to French rationalism: the French, in explaining this or that phenomenon and phenomena, rely more on consciousness and thinking than on feelings and beliefs (beliefs). It is a very difficult task to determine the character of the people and the specific features that make it up, and the characteristics of the personality of the French nation are also characteristic of many other nations. Nevertheless, the isolated cultural dominants are linguistic tools that express the "French national character" at the highest level and distinguish the national characteristics of the French person.

Kalit so'zlar: leksika, semantika, reprezentlar, fransuz, milliy xarakter, ertak, matn, ingvokulturemalar, atoqli otlar, «quvonch», «xursandchilik», «beg'amlik», «baxt», «hazilkashlik», «bayram», qiyosiy-tipologik.

Ключевые слова: лексика, семантика, представления, французский язык, национальный характер, сказка, текст, ингвокультуреми, народные имена существительные, «радость», «радость», «праздность», «счастье», «шутка», «праздник», сравнительно-типологический.

Key words: lexicon, semantics, representations, French, national character, fairy tale, text, ingvokulturems, popular nouns, "joy", "joy", "indolence", "happiness", "joke", "holiday", comparative-typological.

KIRISH

Fransuz milliy xarakterini biz, ertak matnida taqdim etilgan lingvokulturemalar va aksiologik tus bilan bezalgan konseptlardan kelib chiqqan holda baholaymiz.

Ertak, xalqning madaniyatidan darak beruvchi voqea-hodisalar hamda leksik birliklarni o'zida yashirgan pretsedent (o'zidan keyingi sodir bo'ladigan xuddi shu turdagi voqealarga o'rnak, misol bo'larli hodisa) matnning bir shakli hisobalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

I.G.Olshanskiyning tasnifi asosida, bizning nazarimizda, tadqiqotning qiymatini ko'proq darajada aniqlab beradigan lingvokulturemalarning (ekvivalentsiz leksika, afsonalashirilgan madaniy til birliklari, paremiologik zaxira, ramzlar va qiyofalar madaniyati) 5 turini ajratish maqsadga muvofiqdir.

Fransuz ertaklarida barcha muqobilsiz leksika (54 % qo'llanilgan) 5 guruhga bo'linadi:

1) atoqli otlar (Loulou, Nounou, Nicole, Pierrot, Riquet, Fifi, Guillaume, Anna, Aurore, Robert, Cantalabutte, Carabas, Javotte, Finette);

2) toponimlar (mamlakat, shahar, qishloq, voha, daryo nomlari: La Perse, le Bassin parisien, la Normandie, l'Alsace, la Seine, Hongrie, Romaine, Europe, Mines-d'Or, Serpentin-Vert.);

3) pul birliklari (un écu, un louis d'or, un franc);

4) tarixiy yodgorliklar (Le Louvre, Notre-Dame de Paris, Le SacréCoeur, Le Panthéon);

5) uzunlik o'lchovlari (un pied, une lieu, un mètre, un kolomètre).

Biror-bir ertakda to'qima birliklar va hodisalar uchramaydi, bu esa ertakka autentikni (aslga moslikni) beradi, o'quvchini hudud bilan, uning tarixi bilan, fransuz xalqi hayotida bo'lib o'tgan real voqealar bilan tanishtiradi.

Fransuz ertaklarida afsonalashtirilgan til madaniy birliklari - madaniyat formulasi bo'lgan ritual-marosimiy, urf-odatlar, afsonalar, irim-sirimlar (10%.) ni ifodalashda ham aksiologik va epistemik modallik kategoriyalari uchraydi: Masalan, 10 ta ertakdan atigi bittasida afsonalar uchradi. Ular avvalombor, ertak personajlari bilan bog'liq. Masalan, «L'enfant et la vouivre- skazochniy zmey» ertagida kitobxonga ertakona malika ilon qiyofasida namoyish etiladi, juda go'zal husnga ega bo'lgan malika, juda qattiqqo'l va shafqatsiz. Fransuzlarning eng mashhur afsonalaridan birida ta'kidlanishicha, u tog'lar ustidagi bir qasrda istiqomat qiladi va xazinani qo'riqlaydi. Madaniyat belgisi bilan tamg'alangan ertaklar mazmunining uncha ko'p bo'lmagan foizi fransuz ratsionalizmidan guvohlik beradi: fransuzlar u yoki bu perdm et va hodisalarni tushuntirishda ko'proq his-tuyg'u va irimlarga (e'tiqodlarga) emas, balki ong va tafakkurga tayanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Fransuz ertaklari matnida tilning paremiologik fondi kam namoyish etiladi (2%). Tahlil qilingan maqol va matallar fransuz xarakteri qarama-qarshiliklarga xos ekanligini ko'rsatadi: ular doimiy bir xillikka ega bo'lish bilan birga, avanturizmga xos xususiyat bo'lgan turli almashinish va o'zgarishlarga ishtiyoqi baland ekanligi ham ko'rsatib o'tiladi.

Ertak matnida madaniyat belgilariga kelsak, fransuz ertaklarida (30%) haqiqiy hayotni his-tuyg'ular bilan qabul qilinadigan etnos orqali hayvonot va nabotot dunyosi hamda o'rab turgan olam rangdor chizgilarda ifodalangan. Masalan, ertakda biror-bir aniq hayvonning fe'l-atvori, uning xususiyatlari orqali ma'lum axloqiy fazilatlar va xususiyatlar ifodalanadi. Aytaylik, yolg'on, ayyorlik va makr-hiyla tulki obrazida mujassamlangan. Fransuzlar, mamlakatning eng ayyor odamlari deb gaskonliklar hisoblanadi, shuning uchun «un renard gasçon» so'z birikmasi eng yuqori darajadagi ayyorlikni anglatadi.

Ertakda bir hayvonning fe'l-atvori, uning xususiyatlari orqali ma'lum axloqiy fazilatlar va xususiyatlar ifodalangan, ayyorlik va makr-hiyla bo'ri obrazida mujassamlangan.

Lingvokultremalarning qilingan tahlillari asosida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, til – bu xalq madaniyatini tushunishda ramziy boshqaruvchi, leksika esa uning madaniyatining his-tuyg'ularga boy ifodasidir.

Fransuz xalqini xarakterlovchi, o'zida qadriyatlar ifodasini topgan konseptlar orasida, bizning nazarimizda, eng ko'p tarqalgani «optimizm» konseptidir (22%). Bu konseptning quyidagi madaniy dominantlarini ajratamiz: «quvonch», «xursandchilik», «beg'amlik», «baxt», «hazilkashlik», «bayram» kabilardir. Masalan:

1. *Toute la Cour en eut **une joie** qui ne se **peut** imaginer.* (CP.R.H, 168)

2. *Petit bonhomme, je **veux** encore **t'entendre rire**...* (86 p.)

3. *Elles **voulaient avoir** les habits et les coiffures qui leur iraient le mieux.* (CP.C, 34) «**une joie, vouloir t'entendre rire, voulaient avoir**», «**quvoch**», «**xursandchilik**», «**baxt**» konseptlari orqali modallikning istak-xohish kategoriyasi yoritilib berilmoqda.

Fransuz millatining yana bir muhim jihatini aks ettiruvchi aksiologik modallik bilan tus olgan «bag'rikenglik» (qadriyatni ifodalovchi dominantlar: «yaxshilik», «oqko'ngillilik va doim yordam qo'lini cho'zishga tayyorlik», «yordam ko'rsatilganda xursandchilik») (5%) konseptlari bilan ifodalangan: Biz J.J.Russoning fikriga qo'shilishga hayrixohmiz. U shunday degan edi: «Fransiya – barcha nafratlanadigan va o'zi esa hech kimga nisbatan yuragida g'arazligi bo'lmagan beozor va oqko'ngil millat». Masalan: *Je **veux** bien, repondit le petit prince, mais je n'ai pas beaucoup de temps (p.69). Si la chose est ainsi, a dit la princesse, je **veux bien que vous deveniez** le plus beau prince du monde.*

«Jasurlik» konsepti fransuzlar dunyoqarashidagi eng qadriyatli konsept bo'lib, ertak matnida u asosiy o'rinni egallagan. Buni A.Fullening quyidagi so'zlari, ya'ni fransuzlarning eng farqli jihatlari «jasurlik va o'limdan nafratlanish, aqldan ozgan holatni eslatuvchi, mastlikka borgunga qadar fransuzlar o'lim bilan o'ynashganlar, uni izlaganlar, janlarda ular o'z kiyimlarini yechib, qalqonlarini uloqtirib

tashlaganlar» degan fikri tasdiqlaydi. Masalan: Je ne crains personne. Battons nous, si vous le voulez. Soyons bons amis, si cela vous plait».

Fransuz etnosining olam manzarasi yoshlikka oid reprezentlarni aksariyat hollarda sevgi, muhabbat, go'zallik tasvirida oldingi o'rinni egallagan qadriyatlardan (14 %) ekanligi bejizga emas, chunki aynan fransuzlar go'zallikni eng oliy darajada his etuvchi va baholovchilardir:

1. *Elle ne voulait apparaître que dans le plein rayonnement de sa beauté.»*

2. *Lorsqu'il voudrait du roi servir le tendre amour?*

3. *Il y eut même plusieurs gentilshommes qui voulurent l'épouser, quoi qu'elle n'eut pas un sou. Mais elle leur dit qu'elle ne pouvait se résoudre à abandonner son pauvre père dans son malheur? et qu'elle le suivrait à la campagne pour le consoler et l'aider à travailler (La Belle et La Bête.p.12).*

Jahon xalqlari ertaklarida ko'p uchraydigan an'anaviy motivlardan yana biri safar motividir. Masalan:

S'ils voyagent un jour, me disait-il, ça pourra leur servir.(p.24) Agar ular qachondir safarga chiqmoqchi (istak-xohish kategoriyasi) bo'lsalar, bu narsa g'oyat qo'l keladi, dedi u. (20 bet).

Ushbu maqolamizda semantik kategoriyalar nazariyasini rivojlantirib, ushbu kategoriyalar bilan tilning semantik funksiyalari orasidagi munosabatni nazariy tahlil qilishga harakat qilindi. Bizning fikrimizcha, birinchidan, semantik kategoriyalar (mumkinlik, zaruriyat, imperativlik, ruxsat va boshqalar) real obyektiv borliqni aks ettirib, unga bo'lgan munosabatni bildirsa, ikkinchidan, asosiy e'tibor ushbu kategoriyalarning til bilan uzviy bog'liqlik munosabatlariga qaratiladi.

Fransuz xalqining o'gaylik va kamsitilgan kishilar haqidagi (masalan, Sh.Perroning «Kuloyim») kabi ertaklarida ertak personajlariga nisbatan feodal munosabatlar, jumladan, o'gay onaning qizlarga qo'pol muomalasi va uning xarakterli belgilari darhol tinglovchining e'tiborini o'ziga jalb qiladi.

Masalan: Je voudrais bien...je voudrais bien... » Elle pleurait si fort qu'elle ne put achever. Sa marraine, qui était fée, lui dit:»Tu voudrais bien aller aubal, n'est-ce pas? – Hélas!oui, dit Cendrillon en soupirant. (p.12).

Kuloyim jilmayib, ularga debdi:«Uni juda chiroyli dedinglarmi? Muncha baxtl ibo'lmasangizlar, opajonlarim? Shunday go'zal malika bilan tanishibsizlar. Men ham uni bir ko'rsam bo'larmikan. Opajonim Javetta, har kuni kiyib yuradigan sariq ko'ylagingizni berib turing». – «Rostdan-a, – debdi Javetta, – sen go'lahiga oppa-osongina ko'ylagimni berib qo'yib, jinni bo'libmanmi?». Kuloyim bundan ortiq javobni kutmagan ekan ham, u hatto bunday javobdan xursand ham bo'libdi, negaki opasining ko'ylagini kiyib yurishni u aslo istamayotganekan.

XULOSA

Xalqning xarakteri va uni tashkil etuvchi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash juda mushkul vazifa bo'lib, fransuz millati shaxsiga xos xususiyatlar boshqa ko'p millatlarga ham xosdir. Shunga qaramay, ajratilgan madaniy dominantlar fransuz ertaklarida «fransuz milliy xarakteri»ni eng yuqori darajada ifodalovchi hamda aynan fransuz kishisining milliy o'ziga xosliklarini farqlovchi lisoniy vositalardir. Mazkur lisoniy vositalar fransuz tili turli nutqiy diskurslarida yoshga doir reprezentlarning leksik-semantik sistemasining umumiy, qiyosiy-tipologik jihatlarini ochib berish, ularni yorqin ifodalash va ichki lisoniy dunyo manzarasining milliy-madaniy xususiyatlarini aniq aks ettirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akhrorova R.U. "Yosh" tushunchasi lingvistik talqini. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) : 5.938. №2. 2023.03.16. –B.187-190. (Akhrorova R.U. Linguistic interpretation of the concept of "age". Scientific Journal Impact Factor (SJIF) : 5.938. №2. 2023.03.16. –B.187-190.)
2. Akhrorova R.U. Lexical-semantic expression of early youth/jeunesse in french. International scientific and practical in "Modern philological paradigms: interaction of traditions and innovations II". №41. 2022.04.05. –B.166-168.
3. Олшанский Е.О. Лингвокультурология конце XX века: итоги, тенденции, перспективы// Лингвистические исследования в в конце XX века. –М.:ИНИОН, 2000. – С.34. (Olshansky E.O. Linguoculturology at the end of the twentieth century: results, trends, prospects // Linguistic research in the late twentieth century. –M.:INION, 2000. – P.34.)